

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**FILOLOGIYA**

1	<b>Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....</b>	7
2	<b>Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....</b>	13
3	<b>Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....</b>	15
4	<b>Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN’ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....</b>	19
5	<b>Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....</b>	23
6	<b>Narziyeva Inobat Zoirovna. O‘ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....</b>	27
7	<b>Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE’RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....</b>	31
8	<b>Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОБА.....</b>	36
9	<b>Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....</b>	42
10	<b>Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O‘ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI.....</b>	46

**TARIX**

1	<b>Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G‘OYAVIY ASOSLARI”.....</b>	51
2	<b>Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....</b>	55
3	<b>Atayeva Dilfuza Pulatovna. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....</b>	57
4	<b>Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI”.....</b>	61
5	<b>Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO‘YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA‘ZI MULOHAZALAR.....</b>	65
6	<b>Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....</b>	71
7	<b>Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O‘ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....</b>	75
8	<b>Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....</b>	82
9	<b>Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....</b>	88
10	<b>Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....</b>	94

## PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

## PSIXOLOGIYA


- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

## IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHİYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIK LAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otobekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

**Matyakubov Xakimboy Xamidjonovich**  
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti  
<https://orcid.org/0009-0001-7509-633X>  
greathakim9091@mail.ru

## OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707379>

**Annotatsiya:** O'zbek tilida ushbu maqolada olamning onomastik manzarasini tadqiq etishda makon nomlarining stratigrafik tabiati tahlil qilinadi. Makon nomlarining tarixiy qatlamlanishi, ularning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida toponimik birliklarning tarixiy xotira, etnomadaniy taraqqiyot va milliy identifikatsiyani aks ettirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, onomastik tizimning diaxron va sinxron rivojlanish omillari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** onomastik manzara, makon nomlari, stratigrafiya, toponimika, lingvokulturologiya, tarixiy qatlamlanish, etnomadaniyat, semantik tahlil.

**Annotation:** This article analyzes the stratigraphic nature of spatial names in the study of the onomastic picture of the world. The historical layering of place names and their semantic and linguocultural characteristics are examined. The research highlights the role of toponymic units in reflecting historical memory, ethnocultural development, and national identity. Furthermore, the diachronic and synchronic factors of the development of the onomastic system are comparatively analyzed.

**Keywords:** onomastic picture of the world, spatial names, stratigraphy, toponymy, linguoculturology, historical layering, ethnoculture, semantic analysis.

**Аннотация:** В данной статье анализируется стратиграфическая природа пространственных имен в исследовании ономастической картины мира. Рассматриваются историческая многослойность топонимов, а также их семантические и лингвокультурологические особенности. В ходе исследования раскрывается роль топонимических единиц в отражении исторической памяти, этнокультурного развития и национальной идентичности. Кроме того, проводится сравнительный анализ диахронических и синхронических факторов развития ономастической системы. **Ключевые слова:** ономастическая картина мира, пространственные имена, стратиграфия, топонимика, лингвокультурология, историческая многослойность, этнокультура, семантический анализ.

**Kirish.** Olamning onomastik manzarasi xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu tizimda makon nomlari alohida o'rin tutib, ular nafaqat geografik obyektlarni nomlash vositasi, balki milliy

tafakkur, etnik tajriba va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning aksidir. Toponimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqa makon nomlari ma'lum tarixiy davrlar davomida shakllanib, turli til, madaniyat va sivilizatsion qatlamlarning ta'siri ostida rivojlanadi. Shu sababli makon nomlari stratigrafik, ya'ni qatlamlanish tabiatiga ega bo'lib, ular xalqning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi.

Onomastik qatlamlanish jarayonida qadimgi, o'rta va yangi davrlarga oid nom birliklari bir makon doirasida parallel ravishda yashab qolishi mumkin. Bu esa onomastik manzarani tadqiq etishda diaxron va sinxron yondashuvlarning uyg'unligini talab etadi. Makon nomlarining stratigrafik xususiyatlarini o'rganish orqali muayyan hududning etnomadaniy rivojlanishi, tarixiy migratsiyalar, diniy qarashlar va til kontaktlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Mazkur maqolada olamning onomastik manzarasini tadqiq etishda makon nomlarining stratigrafik tabiatini anglash masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda makon nomlarining tarixiy qatlamlari, semantik evolyutsiyasi hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, onomastik birliklarning tarixiy xotira va milliy identifikatsiyani shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Olamning onomastik manzarasini tadqiq etishda makon nomlarining stratigrafik (qatlamlanish) tabiatini anglash muhim metodologik ahamiyatga ega. Xuddi o'zbek toponimiyasidagi qadimiy eroniy qatlam kabi, ingliz tili toponimlarida ham kelt qatlami eng ilk substrat hisoblanadi. K.G.Golubeva ta'kidlaganidek, ingliz tilidagi kelt o'zlashmalarining eng katta guruhini aynan toponimlar tashkil etadi va ularning soni yirik geografik obyektlar doirasida qariyb 11,6 foizni tashkil etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Kelt elementlariga ega bo'lgan ingliz toponimlarini quyidagicha lingvomadaniy markerlarga ajratish mumkin.

1. Etonimik markerlar (Folk names). Masalan, Cornwall (Kornuoll) nomi zamirida keltlarning cornovii ("yarim orol aholisi") qabila nomi va qadimiy inglizcha wahl ("begona") komponenti yotadi. Bu holat o'zbek toponimiyasidagi Tojikovul, Qozoqmahalla kabi o'ziniki-o'zga dixotomiyasini ifodalovchi modellar bilan funksional yaqinlik hosil qiladi. [1,150]

2. Landshaft-tipologik markerlar. Kelt tilidagi bre (burun/tepalik), tre (aholi punkti), saeg (qal'a) kabi apellyativlar asosida shakllangan Brill, Tregidden, Carlisle kabi onimlar makonning ibtidoiy kategoriyalanishini aks ettiradi. Bu o'zbek tilidagi tepa, qo'rg'on, kent komponentlarining toponim yasashdagi rolga qiyosiy muqobildir.

Yangi ilmiy paradigmada toponim nafaqat nominativ birlik, balki V.V.Korneva ta'kidlaganidek, etnomadaniy matn va muayyan bilimlar strukturasi sifatida talqin qilinmoqda. Bunda toponim mazmuniga nafaqat geografik koordinat, balki o'sha makonda yashagan xalqning mifologik, diniy va ijtimoiy tajribasi singdirilgan bo'ladi. A.S.Gerd, N.I.Tolstoy va E.L.Berezovich kabi olimlarning etnolingvistik yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, toponimlar olamning lisoniy manzarasida millatning "genetik xotirasi" vazifasini o'taydi.[2,25]

Olamning onomastik manzarasini tadqiq etishda kognitiv yondashuv geografik nomlarning nafaqat lingvistik, balki mental tabiatini ochib berishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Toponimik manzara ma'lum bir hududda yashovchi etnosning olamni idrok etish spesifikasini va uning ruhiy qiyofasini aks ettiruvchi bilimlar strukturasi. Ye.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, toponim ham apellyativ hosila so'z kabi ikkilamchi lingvistik birlik bo'lib, uning paydo bo'lishi inson ongidagi bilimlarning o'zaro ta'siri natijasidir.

Toponimik nominatsiya jarayoni kognitiv jihatdan uch tomonlama murakkab tuzilishga ega:

1. Onomasiologik (idrokiy) asos. Bu toponimning konseptual poydevori bo'lib, ko'pincha yer, tog', vodi, qishloq kabi makon turlarini anglatuvchi universal tushunchalardir.

2. Onomasiologik (kognitiv) xususiyat. Bu bosqichda geografik makonning o'xshash elementlari ichidan eng ustuvor va farqlovchi (differensial) belgi tanlab olinadi. V.V.Korneva qayd etganidek, ushbu belgilar an'anaviy toponimikada nominatsiya mezonlari yoki tamoyillari sifatida talqin etiladi.

3. Kognitiv predikat. Yuqoridagi asos va belgini mantiqiy-lisoniy jihatdan bir butunlikka bog'lovchi elementdir.

Kognitiv asosni tanlash nom yaratishning dastlabki poydevori bo'lsa, xususiyatni (belgini) tanlash obyektini individuallashtirish va millatning etnomadaniy kodini toponimga singdirish bosqichidir. M.V.Golomidova va O.I.Kopach kabi onomastlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sun'iy va tabiiy nominatsiya jarayonlarida kognitiv asos qat'iy belgilangani holda, belgi tanlash jarayoni subyektning (millatning) tafakkur erkinligi va madaniy stereotiplari bilan uzviy bog'liqdir. [3,21]

Shunday qilib, o'zbek va ingliz toponimiyasidagi milliy markerlar aynan onomasiologik xususiyatni tanlash bosqichida namoyon bo'ladi. Bir xil kognitiv asosga turli xalqlar o'z mentaliteti va geografik idrokidan kelib chiqib turlicha belgilar (rang, shakl, sakrallik) yuklaydilar. Bu esa dunyoning toponimik manzarasi nafaqat jo'g'rofiy xarita, balki inson tafakkurining lisoniy proektsiyasi ekanini isbotlaydi.

Onomastik nominatsiya jarayonida konseptual belgini tanlash erkinligi u bilan asos o'rtasida qat'iy mantiqiy bog'liqlik yo'qligini anglatadi. Shu sababli turli lingvomadaniyat vakillari tashqi ko'rinishi deyarli bir xil bo'lgan geografik obyektlarda turli xususiyatlarni idrok etadilar. Masalan, o'zbek toponimiyasidagi Aqchako'l o'zining fizik xususiyatlari bilan Aydarko'l yoki Qo'rfko'ldan keskin farq qilmasa-da, ularning har biri alohida konseptual belgi asosida kategoriyalashtirilgan.

**Tahlil natijalari.** Ayniqsa, faunonim (hayvon nomlari) komponentli toponimlarning talqinida ushbu subyektivlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday onimlar ko'pincha ikki tomonlama mazmunga ega bo'ladi:[4,65]

1. Lokativ mazmun: Shu hayvon yashaydigan makon.
2. Metaforik mazmun: Tashqi ko'rinishi yoki xarakteri shu hayvonga o'xshaydigan makon.

Masalan, ispan onomastikasidagi Motrico (lotincha Mons – tog' va tricua – “tipratikan”) onimni ham “tipratikan yashaydigan tog'”, ham “tipratikan kabi o'tkir qirrali tog'” deb talqin qilish mumkin. Xuddi shunday, Montoro (“buqa tog'i”) nominatsiyasida buqaning nafaqat tashqi qiyofasi, balki Qadimgi Rim davridan beri shakllangan kuch va qat'iyatlilik kabi milliy stereotip sifatleri ham kodlangan bo'lishi mumkin.

Ushbu kognitiv model o'zbek va ingliz toponimiyasi uchun ham xarakterlidir. O'zbek tilida: Bo'rijar, Devqal'a, Ilondara kabi onimlar makonning xavflilik darajasi yoki shakli haqidagi xalqona tasavvurlarni aks ettiradi. Ingliz tilida Falcon Way (“lochin yo'li”), Hawksway (“qarchig'ay yo'li”) kabi nomlarda yuksaklik va tezlik konseptlari muhrlangan bo'lsa, Buffalo Fort yoki Moose Creek kabi onimlarda nom va obyekt o'rtasidagi uzviy aloqa — ya'ni shu hayvonning real mavjudligi asosiy nominativ motiv bo'lib xizmat qilgan. [5,20]

Olamning onomastik manzarasini tadqiq etishda mualliflik ttaxayyuli mahsuli bo'lgan, maxsus konnotatsiya va hissiy-ekspressiv yuklama bilan to'yintirilgan nomlar – poetonimlar alohida ilmiy qiymatga ega. Badiiy matn doirasida yaratilgan sun'iy onimlar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki ijodkorning lingvokreativ tafakkuri va olamni obrazli idrok etish modellarini ham ochib beradi. Xususan, ingliz adabiyotining yirik vakili Tomas Xardi asarlarida uchraydigan Budmouth, Corvesgate, Knollsea kabi toponimlar real geografik xaritada mavjud bo'lmasa-da, o'quvchi ongida muayyan assotsiativ maydonni faollashtiradi. J.Koks T.Xardi ijodidagi ushbu sun'iy nomlar real toponimlarning morfonologik qismlarini qayta kombinatsiyalash asosida shakllanishini ko'rsatib bergan. Xuddi shunday, V.B.Yits asarlarida Irlandiya mahalliy nomlarining lisoniy estetika talablari asosida o'zgartirilishi (Kyle-na-dyfe → Kinadife) onimning badiiy matndagi lingvopoetik imkoniyatlarini kengaytiradi. S.Efergren ta'kidlaganidek, atoqli otlarning turdosh otlarga aylanish (postonomastik) jarayonida nomning nominativ vazifasidan tasnifiy vazifasiga o'tishi kuzatiladi.

Ingliz onomastik manzarasida milliy stereotiplar va madaniy kodlar quyidagi jihatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:[6,99]

I. Avtostereotiplar. Olamning onomastik manzarasida etnosning o'z-o'zini anglashi va baholashi bilan bog'liq bo'lgan avtostereotiplar (yunoncha autos – o'zi + stereos – qattiq, barqaror) markaziy o'rin tutadi. Avtostereotip muayyan etnik hamjamiyat vakillarining o'z millatiga xos

xususiyatlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellari haqidagi tizimlashtirilgan tasavvurlari majmuidir. L.S.Jukova ta'kidlaganidek, avtostereotiplar etnik o'zlikni himoya qilish va "biz" guruhini "ular" (geterostereotiplar)dan ajratishda muhim etnodifferensiyalovchi funksiyani bajaradi.

Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida avtostereotiplar ko'pincha muayyan antroponimlar doirasida kodifikatsiyalanadi. Masalan, John Bull (Jon Bull) ingliz onomastik manzarasida solihlik, konservatizm va to'g'ri so'zlik kabi avtostereotiplarning lisoniy in'ikosidir. L.N.Gumilyovning etnos nazariyasiga ko'ra, bunday obrazlar etnik tizimning barqarorligini ta'minlovchi "madaniy yadro" vazifasini o'taydi.

Uncle Sam (Sem amaki) Amerika avtostereotiplarida davlatchilik va erkinlik ramzi sifatida shakllangan bo'lib, u inglizlardagi an'anaviylilik qarshi pragmatizm va individualizm konseptlarini voqelantiradi. [7,123]

O'zbek onomastikasida Alpomish (mardlik va bag'rikenglik), Nasriddin Afandi (zukkolik va yumor) kabi pretsedent onimlar orqali ifodalanadi. D.Andaniyazova qayd etganidek, badiiy matndagi muvaqqat onimlar, masalan, Meshpolvon yoki Bilmasvoy kabi obrazlar ham milliy xarakterdagi muayyan qirralarni (kuch, soddalik, bilimsizlik) stereotiplashtirishga xizmat qiladi.

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til sohiblari o'z tilini "to'g'ri", "go'zal" va "ma'rifiy" deb baholashga moyil (avtostereotip). Ingliz respondentlari uchun British English an'anaviy va evfonik (yoqimli yangraydigan) bo'lsa, ular uchun American English buzilgan yoki gibril til (geterostereotip) sifatida idrok etiladi. L.A.Tavdgiridze fikricha, til konsept sifatida etnik xarakterning eng muhim komponenti bo'lib, u "biz" va "ular" chegarasini belgilaydi.[8,25-33]

**Xulosa.** Onomastik birliklarning stereotiplashtirish qobiliyati tipik ismlarning apellyativlashuvda yaqqol ko'rinadi:

Ingliz tilidagi Tom, Dick and Harry birligi "oddiy, duch kelgan odam" stereotipini hosil qilsa, bu o'zbek tilidagi Alixo'ja – Xo'jaali yoki Ismat va Toshmat tandemidagi "tipik xarakterlarni kategoriyalashtirish" modeli bilan tipologik mushtaraklik hosil qiladi. Ye.F.Tarasov ta'kidlaganidek, bunday "ong obrazlari" nutqiy muloqot jarayonida shakllanib, til sohiblarining ijtimoiy tajribasini tizimlashtiradi.

O'zbek va ingliz onomastik birliklarini avtostereotiplar prizmasida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ismlar va nomlar shunchaki atash vositasi emas, balki millatning o'zligi haqidagi "lisoniy portreti"dir. Avtostereotiplar onimlar tarkibida barqarorlashib, avlodlar o'rtasida etnik qadriyatlar va ijtimoiy ideallarni translatsiya qilish mexanizmi vazifasini o'taydi. Bu esa onomastik manzarani nafaqat tilning lug'aviy qatlami, balki millat ruhiyatining ko'zgusi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Корнева В.В. Топонимические исследования в новой научной парадигме. – 2016. – С. 150.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: Роль языка в познании мира. – М., 2004. – С. 25.
3. Корнева В.В. Основные направления изучения топонимов. – 2012. – С. 21.
4. Голомидова М.В. Искусственная номинация в ономастике. – Екатеринбург, 1998. С. 65
5. Cox J. Hardy's Wessex. London: Toucan Press, 1973. – P. 20.
6. McGarry J. Place names in the writings of Yeats. Toronto: Macmillan Company, 1976. – P. 99.
7. Efvergren C. Names of places in a transferred sense in English. Detroit: Gale Research Co., 1969. – P. 123.
8. Жукова Л.С. Образы американцев и англичан: авто- и гетеростереотипы // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2007. – Т. 5, вып. 2. – С. 25-33.

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].